GEOGRAFIYA

UO‘K: 911. 551.4 (5775) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a149**

LANDSHAFTLAR STRUKTURASI VA ULARNING ZAMONAVIY ANTROPOGEN JARAYONLAR TA’SIRIDA O‘ZGARISHI

THE STRUCTURE OF LANDSCAPES AND THEIR TRANSFORMATION UNDER THE INFLUENCE OF MODERN ANTHROPOGENIC PROCESSES

СТРУКТУРА ЛАНДШАФТОВ И ИХ ТРАНСФОРМАЦИЯ ПОД ВЛИЯНИЕМ СОВРЕМЕННЫХ АНТРОПОГЕННЫХ ПРОЦЕССОВ

Boymirzayev Karimjon Mirzaxmedovich[1], Naimov Husniddin Nuriddin o‘g‘li[2], Jo‘raqulova Dilbar Xayrullayevna[3]

[1]Boymirzayev Karimjon Mirzaxmedovich – Namangan davlat universiteti, g. f.d., dosent,
[2]Naimov Husniddin Nuriddin o‘g‘li – Namangan davlat universiteti, tayanch doktorant
[3]Jo‘raqulova Dilbar Xayrullayevna – Samarqand davlat universiteti, katta o‘qituvchi

Annotasiya

Mazkur maqolada hozirgi kunda dunyo va mamlakatimiz tabiatini antropogen ta’sirlar natijasida o‘zgarib borayotganligi, bu o‘zgarishlar natijasida tabiatning barcha landshaft komplekslarida, shuningdek yangi yerlarni o‘zlashtirilishi natijasida tabiiy-antropogen landshaft komplekslarida ham turli xil o‘zgarishlar, cho‘llanish, sho‘rlanish, degradasiya hamda yerlarning meliorativ holatining yomonlashuvi kabi ekologik muammolar kuzatilayotgani to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek ushbu ekologik muammolarni bartaraf etishga oid chora – tadbirlar bayon etilgan.

Abstract

This article provides information that currently the nature of the world and our country is changing as a result of anthropogenic influences, as a result of these changes, various changes are observed in all landscape complexes of nature, as well as natural-anthropogenic landscape complexes as a result of the development of new lands, as well as environmental problems such as desertification, salinity, degradationMeasures to eliminate these environmental problems are also outlined.

Аннотация

В данной статье представлена информация о том, что в настоящее время природа мира и нашей страны меняется в результате антропогенных воздействий, в результате этих изменений наблюдаются различные изменения во всех ландшафтных комплексах природы, а также природно-антропогенных ландшафтных комплексах в результате освоения новых земель, а также экологические проблемы, такие как опустынивание, засоление, деградация, также изложены меры по устранению этих экологических проблем.

Kalit so‘zlar: *landshaft, antropogen ta’sir, ekologik muammo, degradasiya, geosistema, prognozlash, meliorasiya, tabiiy resurs, landshaftlar strukturasi*

Ключевые слова: *ландшафт, антропогенный анализ, экологическая проблема, деградация, геосистема, прогноз погоды, рекультивация, природный ресурс, структура ландшафта*

Key words*: landscape, anthropogenic impact, environmental problem, degradation, geosystem, forecasting, reclamation, natural resource, landscape structure.*

KIRISH

Jahonda tabiat va insonning o‘zaro ta’siri va bir-biri bilan dinamik bog‘liqlik jarayonida vujudga kelayotgan murakkab muammolarning yechimini topishda antropogen landshaftshunoslik muhim ahamiyat kasb etayotganligiga oid keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunki jamiyat taraqqiyotida tabiiy resurslarga bo‘lgan ehtiyojning ortishi tabiatning barcha landshaft komplekslarida, shuningdek yangi yerlarni o‘zlashtirilishi natijasida tabiiy-antropogen landshaft komplekslarida ham turli xil o‘zgarishlar, cho‘llanish, sho‘rlanish, degradasiya hamda yerlarning meliorativ holatining yomonlashuvi kabi ekologik muammolar kuzatilmoqda. BMTning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish bo‘yicha dasturida “...quruqlik ekosistemalarini muhofaza qilish va tiklash, ulardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, yerlarning degradasiyasini to‘xtatish, biologik xilma-xillikni yo‘qolishini oldini olish...”ga qaratilgan bir qator vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni bajarishda arid iqlimli mintaqalarda antropogen va tabiiy omillar ta’sirida ro‘y berayotgan landshaft komplekslarining baholashni, ularni sun’iy yo‘ldoshlar yordamida doimiy monitoring qilishni hamda landshaftlarning ekologik barqarorligini saqlash va takomillashtirishni taqozo etadi.

Dunyoda qurg‘oqchil iqlimli hududlarda ekologik vaziyatning keskinlashib borishi, landshaftlarga ta’sir etuvchi ekologik omillarni me’yorlashtirish hamda monitoring ishlarini uzluksizligini ta’minlash, vujudga keltirilgan antropogen landshaftlarni tipologik jihatdan tadqiq etish, morfologik tuzilishini o‘rganish, tasniflash tamoyillarini aniqlash, prognozlashtirish va ularda landshaft tahlilini amalga oshirish kabi ishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Antropogen landshaftlarga turli omillarning ta’siri natijasida,ularning shakllanishi, tarqalishi va barqaror rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish hamda ularni ekologik jihatdan optimallashtirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Respublikamizda ham inson xo‘jalik faoliyati ta’sirida vujudga kelayotgan ekologik muammolarni bartaraf etish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, ekologik xavfsizlik va uni barqarorlashtirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga kompleks yondashish, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Mazkur maqsadlarning amaliyotga tatbiq etilishi mavjud ekologik muammolarni hal etilishi bilan bir qatorda mintaqamizdagi ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun xizmat qiladi.

Buni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”dagi Farmonida “Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish”, “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish, “O‘rmonlar maydonini kengaytirish” maqsadini o‘z ichiga olgan alohida “Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish” yo‘nalishining belgilab berilganidan ham bilish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining 2017–2021 yillarda yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham “sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigasiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish...” yuzasidan muhim vazifalar belgilangan. Bu borada, antropogen landshaftlar shakllanishining tarixiy-genetik tahliliga oid tabiiy va iqtisodiy geografik omillarning rolini aniqlashga doir maqsadli tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

XX asrning ikkinchi yarmida inson faoliyatining tabiatga ta’siri kuchayishi va landshaftlarning keng ko‘lamda o‘zgartirilishi, landshaftlarning antropogenlashuviga olib kela boshladi. Tabiiy muhitning holati geografik zonallik, geologik-geomorfologik jarayonlar va inson faoliyati tufayli tobora kuchayib borayotgan o‘zgarishlar bilan belgilana boshlandi. Shu sababli hozirgi landshaftlar ma’lum darajada o‘zgartirilgan, antropogen modifikasiyalangan tabiiy landshaftlar bilan bo‘lgan hududiy birikmadan iborat. Shu asosda tabiiy landshaftning antropogen landshaftga aylanishida antropogen omil negiz bo‘lib hisoblanadi.

Antropogen landshaftlarning tipologik jihatdan tadqiq etish va morfologik tuzilishini o‘rganish, daryolar havzalarida antropogen landshaftlar shakllanishining tarixiy-genetik davrlashtirishni tizim sifatida tadqiq etishning zamonaviy metodlariga oid xorijiy mamlakatlarda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va bu tadqiqotlar hozirgi kunda ham davom ettirib kelinmoqda. Antropogen landshaftlar strukturasini saqlash, antropogen landshaftlarning barcha tiplaridan, jumladan keng tarqalgan agrolandshaftlardan oqilona foydalanish va ularni optimallashtirish bo‘yicha tizimli yondashuvlarni ishlab chiqish (Environmental protection Research Institute, Shvesiya), landshaft komplekslarini mikrozonal differensiasiyalanishining asosiy qonuniyatlari hamda daryo havzalari landshaftlarining funksional-dinamik bog‘liqligini vujudga kelishida global va regional tabiiy hamda antropogen omillarning ta’siri, ularning davriyligi, rivojlanishining landshaftlar komponentlariga va barqarorligiga ta’sir ko‘lamini baholash (Institute of Geographical Sciences, Pekin, Xitoy), havzalar tabiiy muhitining global va regional o‘zgarishini monitoring qilish tizimini ishlab chiqish (Institute of Geographu, Buyuk Britaniya), tuproqlar va abiotik omillarning ifloslanishi va degradasiyasiga bog‘liq holda atrof-muhitga keltirilgan zararlarni

baholash yo‘l-yo‘riqlarini takomillashtirish (Moskva davlat universiteti, Rossiya) kabi tadqiqotlar olib borilmoqda.


Shuningdek, jahonda daryolar havzalari, ayniqsa, ularning sug‘orilib dehqonchilik qilib kelinayotgan yerlariga antropogen ta’sirini aniqlashga oid bir qator yo‘nalishlarda tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Landshaftlarning funksional bir butunligi, landshaftlarning yangi modifikasiyalarini vujudga kelishi, funksional bir butun geosistemalarni differensiasiyalanish qonuniyatlari, tabiiy va antropogen omillarning ta’siri va global o‘zgarishlarda landshaftlarning barqarorligini baholash, antropogen landshaftlar shakllanishining tarixiy-genetik davrlashtirishningo‘rganishda distansion metodlar, jumladan GAT texnologiyalaridan foydalanish,havza geosistemalarining alohida qismlarida landshaftlarning transformasiyalanishi, turli mavzuli landshaft-ekologik kartalarini tuzish, atrof-muhit ifloslanishini prognozlash va landshaft-ekologik holatni optimallashtirishning geografik asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega masalalardan hisoblanadi [2].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘zbekistonning shimoli-sharqiy, sharqiy, janubiy qismlaridagi hududlarda antropogen omillarning ta’siri yuqori. O‘zbekiston hududida tog‘li va tog‘ oldi hududlariga quyidagi atropogen omillar tasirini kuzatishimiz mumkin. Dengiz sathidan 500-800 metr balandliklarda asosan atrof-muhitga aholi tomonidan qishloq xo‘jaligi maqsadidagi ta’sir darajasi kuchli hisoblanadi. Sababi, hududlardagi aholining asosiy qismi qadimdan sug‘orma dehqonchilik faoliyati bilan shug‘ullanib keladi. Bunday hududlarga asosan tog‘ va tog‘oldi hududlarining daryo vodiylari, terassalar, konussimon yoyilmalar va yonbag‘ir qiyaligi kichik bo‘lgan past tog‘ va adirlar kiradi.

Landshaftlarning vujudga kelishini o‘rganish yo‘l-yo‘riqlariga ko‘ra, zamonaviy landshaft komplekslarini quyidagi genetik qatorlarga ajratish mumkin: klimatogen, texnogen, vulkanogen, flyuvial, kriogen, eol, nival muzlik, gidrogen, litogen, gidrodinamik, biogen, antropogen. So‘nggi landshaft komplekslarini, zamonaviy landshaft tadqiqotlarining tarkibiy qismi bo‘lgan antropogen landshaftshunoslik o‘rganadi. Antropogen landshaftshunoslik tadqiqotlarining asosiy vazifasi, inson tomonidan yaratilgan landshaft komplekslarining tuzilishi va xususiyatlarini o‘rganish, funksional-dinamik jihatdan tadqiq etish, kuzatuv va monitoring ishlarini olib borish, landshaftlarni aniqlash, kartaga tushirish, ularni morfologik tuzilishini, gorizontal va vertikal tuzilishini ochib berish kabilardan iborat [4].

Quyidagi xarita (1-rasm) yordamida O‘zbekiston hududida antropogen omillar yordamida atrof-muhitga ta’sir darajasini ko‘rishimiz mumkin:



1-rasm. O‘zbekiston tog‘ va tog‘ oldi hududlariga antropogen omillarning ta’siri

So‘nggi yillarda landshaftshunos geograflar tomonidan inson xo‘jalik faoliyati natijasida vujudga kelgan landshaft komplekslarini tadqiq etish ishlari tobora keng ko‘lamda olib borilmoqda. Chunki inson bevosita va bilvosita barcha tabiiy komponentlariga ta’sir etmoqda. Bu bilan inson o‘z

oldiga qo‘ygan ijobiy natijadorlikka erishmoqda. Ammo ayrim hollarda o‘zi kutmagan salbiy oqibatlarning yuzaga kelishiga ham sababchi bo‘lib qolmoqda. Bunday salbiy oqibatlar hatto global tus olib, dunyo aholisini tashvishga solmoqda [3].

O‘rta Osiyoning boshqa doirasimon tog‘oraliq havzalari singari, antropogen landshaft majmualarini, ayniqsa sug‘oriladigan va yomg‘ir bilan oziqlanadigan qishloq xo‘jaligi landshaftlari turlarini shakllantirishning eng qadimgi o‘chog‘i hisoblanadi. Buning natijasida ushbu havzaning asl tabiati, tabiiy komplekslarning tarkibiy qismlari va tabiiy komplekslarning morfologik tuzilishi juda keskin o‘zgardi va antropogen deb ataladigan inson tomonidan yaratilgan butunlay yangi landshaft majmualari shakllandi [2].

XULOSA

Zamonaviy antropogen landshaft majmualari ko‘p asrlik inson xo‘jalik faoliyati mahsuli bo‘lib, insonlarning ta’sirida ular shakllangan va rivojlangan. Antropogen landshaft majmualarining paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanish tarixi turli geologik va arxeologik davrlar, madaniyatlar va yodgorliklarning rivojlanish tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir. Insonning iqtisodiy faoliyati ta’siri ostida shakllangan, turli xil landshaft majmualari o‘ta murakkabligi va dinamizmligi bilan ajralib turadi. Bu yerda shahar va qishloq aholisining intensiv o‘sishi yildan-yilga landshaft majmualariga antropogen bosimni oshiradi, natijada ular rivojlanishning yangi rejimiga ega bo‘ladi. Shuning uchun, antropogen landshaft majmualarining shakllanish tarixini o‘rganish muammolari, ularni davrlashtirish va ko‘p masshtabli xaritalash masalalari, zamonaviy antropogen landshaftshunoslikda juda katta nazariy va amaliy qiziqish uyg‘otadi. Antropogen landshaftlar shakllanishining tarixiy-genetik tahlili, paleogeografiya, arxeologiya, paleonlimatologiya, paleobotanika va paleozoologiya bilan chambarchas bog‘liq holda olib boriladi.

F.N.Milkov (1973) ta’biri bilan aytganda: “Asrlar tarixi nafaqat arxeologik yodgorliklar, yilnomalar, davlat qonunlarida, balki antropogen landshaftlarda ham iz qoldirgan. Antropogen majmualarda “vaqt kesimlari”– asrlar, o‘nlab yillar qatlamlari va ba’zi hollarda alohida yillarni aniqlash, tarixiy antropogen landshaftni o‘rganish vazifasi” aynan shu antropogen landshaft majmualarining shakllanish tarixi va insonning tabiatga ta’siri darajasini tarixiy-geografik jihatdan o‘rganadi [5].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ- 60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.
2. Абдулкосимов А.А., Абдулкосимов А., Абдулкосимов И. Антропогенные ландшафты Средней Азии. – Тошкент.: “Иқтисод – молия”. 2016. – бет 262.
3. Алибеков Л.А. Инсон ва табиат. – Тошкент.; “Фан ва технологиялар”, 2016. – бет 272.
4. Зокиров Ш.С. Амалий ва антропоген ландшафтшунослик. – Тошкент.: “Университет” нашриёти, 1997. – бет 98 .
5. Мильков Ф.Н. Человек и ландшафты (очерк антропогенного ландшафтоведения) – М.: Мысль, 1973. – бет 224.